

**PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI
AMALIYOTGA TADBIQ ETISH MEZONLARI**

Yorqin Sharapovich Turopov

*Jizzax davlat pedagogika universiteti falsafa, tarbiya va
huquq ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi*

**КРИТЕРИИ ПРИМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРАКТИКЕ**

Старший преподаватель Джизакского государственного
педагогического университета

Ёркин Шарапович Турапов

**CRITERIA FOR APPLICATION OF PEDAGOGIKAL INNOVATION
TECHNOLOGIES IN PRACTICE**

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Yorqin Sharapovich Turopov

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion ta'lim tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Mutaxassislik fanlarini o'qitishga inovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etishning ilmiy-metodologik mezonlari tahlil etilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turi sifatida innovatsion ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish mezonlarining didaktik prinsiplari va ahmiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion ta'lim, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsiya mezonlari, sub'ekt, ob'ekt, polufunksionallik

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятий инновации, личностно-ориентированного образования и инновационного образования. Проанализированы научно-методические критерии применения инновационных образовательных технологий в преподавании профильных предметов, особенности инновационного образования как вида личностно-ориентированного образования, показаны дидактические принципы и значение критериев применения инновационных образовательных технологий в образовательном процессе

Ключевые слова: Инновация, инновационное образование, инновационные образовательные технологии, личностно-ориентированное образование, критерии инновации, субъект, объект, полufункциональность

Abstract: This article reveals the essence of the concepts of innovation, person-centered education and innovative education. The scientific-methodological criteria of applying innovative educational technologies to the teaching of specialized subject are analyzed. The specific characteristics of innovative education as a type of person-oriented education, the didactic principles and importance of the criteria for applying innovative educational technologies to the educational technologies to the educational process are shown.

Keywords: Innovation, innovative education, innovative educational technologies, person-oriented education, innovation criteria, subject, object, semifunctionality

O‘zbekiston jamiyat taraqqiyotining yangi innovatsion rivojlanish yo‘lidan rivojlanib bormoqda va tarixan qisqa vaqt ichida olamshumul yangidan yangi ijobiy natijalarga erishmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot startegiyasi globallashtayotgan zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta‘minlovchi kasbiy ta‘lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta‘lim mazmunini yangilash, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda, bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirishga, ta‘lim bosqichlarining o‘zaro uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bilim berish ta‘lim paradigmasidan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim paradigmasiga o‘tilmoqda. Zero, globallashtirish sharoitida ta‘lim shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta‘lim shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim deb nomlanadi.

Bu ta‘lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim turi sifatida innovatsion ta‘lim o‘quv jarayoni mazmuni va shakliga yangilik kiritish, unga ijodiy, kreativ va yuqori kompetentlikni o‘zida mujassamlashtiradi.

Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g’oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o’zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg’or g’oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

O’zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonunida “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat”ga quyidagicha ta’rif berilgan: “innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma”, “innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o’tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo’yicha faoliyat” deb, ta’rif berilgan [1].

G.Tard asarlarida (xususan, 1901 yilda e’lon qilingan «Ijtimoiy mantiq» asarida) ijtimoiy taraqqiyot ko’rsatkichi sifatida ixtirolar va innovatsiyalar amal qilishi[2] ko’rsatib berilgan. Uning fikricha, bu ikki tushuncha o’rtasidagi farq shundaki, ixtiro butunlay yangi fenomen bo’lsa, innovatsiya ixtironi ijtimoiy-madaniy me’yor sifatida o’zlashtirish jarayonidir. Bunda innovatsiya o’zgarayotgan sharoitlarga moslashish bilangina cheklanmasligi qayd etladi. Innovatsiyaning mohiyati ehtiyojlarni qondirish bilangina emas, balki o’zgarishlarga qarab mo’ljalluvchi yangi ehtiyojlarni yaratish bilan ham belgilanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi o’zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o’zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo’llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. O’zining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o’rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko’rib chiqishni taklif qildi [3].

Shuningdek, Y.Shumpeter («Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi», 1911 yil) innovatsiyaning alohida mexanizmi[4] ni qayd etadi. Uning fikricha, bu mexanizm nazariy tadqiqot bilan «fan-tadqiqot-ishlab chiqish-ishlab chiqarish-iste’mol qilish» zanjirli jarayoni o’rtasida alohida bog’lanish mavjudligi bilan ajralib turadi.

N.G.Kondratyev innovatsiyaning siklli rivojlanish nazariyasi g’oyasini ilgari suradi. Ushbu nazariyada innovatsiyalarning iqtisodiy hayotni ham, ijtimoiy hayotni ham o’zgartiruvchi ixtirolardan izchil va faol foydalanish dinamikasi[5] alohida o’rin egallaydi.

Yangilanayotgan O’zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlarning ro’yobi jamiyatimizning innovatsion rivojlanish yo’li, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ta’lim innovatsiyalarini soha tizimlariga to’g’ri tadbiq etish bilan uzviy bog’liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddan bilan rivojlanib borayotgan hozrgi davrda kim yutadi? Yfngi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya, bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondoshuv asosida boshlashimiz kerak”. [6]

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib etish, amaliyotda ta’lim muassasalaridagi innovatsion jarayonlarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda, bu zarurat o‘zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko‘rish va, eng muhimi, aniq yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat. “Innovatsion ta’lim” deganda odatda o‘quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta’lim tizimida innovatsiya o‘zgartirish bilan bevosita bog‘liq. Bunday o‘zgartirishlar ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlariga taaluqlidir.

Ta’limdagi innovatsiyani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tizimning yaxlitligini u yoki bu darajada saqlash imkoniyatini beruvchi mezonni izlash bilan ham bog‘liqdir. Bunga innovatsiyani ijtimoiy belgilanganlik va pedagogik maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan o‘rganish orqali «pedagogik faoliyatning samaradorligi» [7] qabilidagi umumiy mezonni topishga urinish misol bo‘lishi mumkin. Bunday mezon sifatida amal qilish imkoniyatiga «o‘zgarishlar ko‘lami (hajmi)» [8] ham ega. To‘g‘ri, u tarkibiy jihatdan xususiy (ichki, yakka), modulli va tizimli o‘zgarishlarga bo‘linadi. Bizning nazarimizda, bu mezon yangilik keltirishi mumkin bo‘lgan samaraga ko‘ra yoki yangilikni tashkillashtirish usuliga ko‘ra tasniflashga nisbatan o‘rinli bo‘ladi. Innovatsiyaga kelsak, u o‘z tabiatiga ko‘ra faoliyatning alohida tashkillashtirilishi natijasida yuz beradigan tizimli, izchil o‘zgarish sifatida tavsiflanadi.

Ta’lim jarayoniga doir munosabatlar, harakatlar va elementlar tizimi ta’lim muassasasi bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarning yana bir qatlamiga egadir. Bunda ijtimoiy muhit turli ijtimoiy tizimlar, institutlar va ularning o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida ifodalaydi. Mohiyat e’tibori bilan, bu asosan ta’lim jarayonini oqilona tashkil etish uchun zamin yaratuvchi boshqaruvga doir munosabatlardir.

Bizningcha, innovatsiyaning ijtimoiy-ma’rifiy qimmatini uning ahamiyatini belgilovchi integrativ mezon sifatida amal qilishi mumkin. Bu mezon quyidagi indikatorlarni o‘z ichiga oladi:

- ijtimoiy rivojlanish istiqbollari qaratilgan ta’lim va pedagogika jarayonlari samaradorligining o‘zgarish darajasi;
- amalga oshirilgan o‘zgarishlarning kasbiy-pedagogik va ijtimoiy hajmi;

- kasbiy-pedagogik va ijtimoiy rivojlanish darajasi (iste'molchilar doirasining kengligi va tarqalish tezligi).

Bizningcha, ayni shu mezon innovatsiyaning faqat to'liq hayot sikli yakunlanganidan so'ng erishiladigan unumdorlik darajasini qamrab oladi va bunda innovatsion jarayonning mazmunini ham, predmetini ham saqlab qoladi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlar innovatsiya mezonlari murakkab tuzilishli xususiyat kasb etadi va uning mazmunini to'laqonli aks ettiradi, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi. Tizimli yondashuv tamoyillariga muvofiq innovatsiyalarni tiplarga ajratishning quyidagi modeli namoyon bo'ladi. Birinchidan, u innovatsiyaning tizim sifatidagi mohiyati bilan, ikkinchidan, jamiyat ijtimoiy tuzilmasining elementlari bilan innovatsiyaning o'zaro aloqasi bilan belgilanadi. Natijada mezonlarni belgilashning tuzilish jihatidan ko'p darajali bo'lgan va mazmun jihatidan toifalarga ajratilgan matritsasi vujudga keladi.

Makrodarajada mehnatning ijtimoiy taqsimoti asosida tizim sifatidagi innovatsiyaning xususiyatini aks ettiruvchi mezon aniqlanadi. Ushbu mezonga muvofiq, ta'limdagi innovatsiya ixtisoslashgan kasbiy faoliyatni tashkillashtirishning jamiyatning barcha jabhalarini ta'minlovchi alohida sohasi sifatida hamda ta'lim jarayonining tuzilishi, mazmuni va uni tashkil etish usulini, shuningdek boshqaruv madaniyatini o'zgartiruvchi ta'limning rivojlanishini boshqarishning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi.

O'z navbatida, ta'lim sohasidagi tizimlararo munosabatlarning mikrodarajasida quyidagi mezonlarni ajratish mumkin:

- integral xususiyatlarni innovatsiyaning amal qilish natijasi sifatida qayd etuvchi terminal (mohiyatni aks ettiruvchi) mezonlar, shu jumladan innovatsiyaning ijtimoiy-ma'rifiy qimmati;

- innovatsiyani yangilik darajasiga ko'ra tavsiflovchi texnologik mezonlar.

Pedagogik innovatsiyalarni bevosita amalga oshirish bosqichida polifunksionallik innovatsiyaning o'ziga xos jihati sifatida o'zini to'laqonli namoyon etadi. Texnologik jihatdan mukammal bo'lgan innovatsiya ham pedagogik tizimning ko'p omilli elementi – ijtimoiy-psixologik muhitga sezilarli darajada bog'liqdir. Lo'nda qilib aytganda, innovatsion jarayonning mazkur bosqichi innovatsiyani jarayon va natija sifatida institutsiallashtirishda alohida o'rin tutadi.

Bu borada taniqli olimlar Yu.A.Karpova adabiyotlarda mavjud ishlanmalarga innovatsion jarayonni tashkillashtirishning sof texnik yoki boshqaruvga oid modellarining bir yoqlamaligini chetlab o'tuvchi falsafiy tahlil nuqtai nazaridan tanqidiy ko'z bilan qarash orqali ushbu muammoni echishga nisbatan o'z yondashuvini taklif qiladi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlarning kamchiligi sifatida ular jarayonning bir yoki bir nechta bosqichini vaqtda va makonda tavsiflash bilan

kifoyalanishini qayd etib, u innovatsion jarayonda quyidagi bosqichlarni ajratishni taklif qiladi:

- ijtimoiy ehtiyojlarni anglab etish yoki prognozlashtirish;
- muammoni echish konsepsiyasini izlash;
- muammoni o‘rganish;
- innovatsiyalarni ishlab chiqish;
- o‘zlashtirish;
- tarqatish (diffuziya);
- madaniyatda mujassamlashtirish va integratsiya.[9]

Bizningcha, ushbu yondashuvning diqqatga sazovor jihatida shu bilan belgilanadiki, unda innovatsiyaning mazkur fenomen amal qiladigan turli xil xususiyatli sohalarini qamrab oluvchi polifunksional hodisa sifatidagi yaxlitligi ta’minlangan. Pedagogik innovatsiyalarni amalga tadbqiq etishda innovatsion faoliyatning politsentrizmi uning barcha elementlarini, chunonchi: intellektual-boshqaruv, informatsion-joriy etish va madaniy-izlanish sohalarini qamrab olishi zarur. U o‘quv predmetini faqat mazmunini o‘zlashtirishnigina emas, balki o‘quvchi (talaba)lar tomonidan interfaol ijodiy muhitga yo‘naltira olishni ham nazarda tutadi.

Pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish ham tuzilish, ham mohiyat jihatdan yaxlitlik prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip innovatsion texnologiya loyihasi yaratilayotganida pedagogik tizim barcha elementlarining o‘zaro ta’sir ostida bo‘lishini va o‘zaro bog‘liqligini e’tiborga olishni taqozo etadi. Ya’ni, ta’lim maqsadining qat’iyan aniqlanishi (nega va nima uchun?), o‘quv jarayoni mazmuni (nima?), tashkiliy shakllarni (qanday?), o‘qitish metodlari va vositalarini (nima yordamida?) saralash va tanlashga ko‘maklashishi, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati darajasiga bog‘liq holda didaktik jarayon samarasini aniqlashga imkon berishi kerak.[10]

Pedagogik innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etishda maqsadlilik (ta’lim-tarbiya jarayonini tavsiflash), o‘quv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalashtirish, maqsadga muvofiq yakuniy natijaning kafolatlanishi, o‘qitishning mantiqan tugallanganligi, egiluvchanlik kabi prinsiplar asosiy mezonlar bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarni tadbqiq etishning ilmiy asoslangan mezonlari mavjud. Pedagoglar o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirayotganlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari maqsadga muvofiq. Pedagogik innovatsiyalarning taklif qilinayotgan modellarida yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy-nazariy va ijodiy-amaliy mezonlarga asoslanish o‘quv jarayonining maqsadga muvofiq natijasini kafolatlashga xizmat qiladi.

Biz yuqorida ko‘rib chiqqan innovatsion yondashuvlar va ularning tegishli ta’lim texnologiyalari zamonaviy oliy ta’limning quyidagi dolzarb vazifalarini hal qilishga yordam beradi:

- bilimlarni samarali egallash;
- professional yechimlar olish imkonini beruvchi amaliy tadqiqotlar ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- bilimlarni to‘plashdan mustaqil izlanish qobiliyatlarini va tadqiqot faoliyati mexanizmlarini yaratishga o‘tish;
- talabalar shaxsiyatining qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish;
- kognitiv faollikni oshirish;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- talabalarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi uchun qulay didaktik va psixologik sharoitlarni yaratish.

Shunday qilib, bugungi kunda ta’lim sohasidagi innovatsiyalar endi alohida hodisa va tasodifiy topilmalar emas. Innovatsiyalar universitetning ta’lim maydoni rivojlanish vektorini belgilovchi tizimga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы/ References

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son.
2. Тард Г. Социальная логика.-М.: 1901. -156 с.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. 4
4. Шумпетер И. Теория экономического развития.-М.: 1911. -89.
5. Кондратьев Н.Г Цикличное развитие инноваций.-М.: Наука, 1954. -178 с.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston”, 2019. B.-88.
7. Кваша В. Только один способ управления эффективен.-М.: АСТ, 1997 - С.78.
8. Управление развитием школы / Под ред. Поташника М.М. и Лазарева В.С. – М., 1995. – С.114.
9. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М.: 1998. – С.23.
10. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T.: “Fan va texnologiya”, 2014. B.-116.